



## FUQAROLIK ISHLARINI SUD BUYRUG'I TARTIBIDA KO'RISH ASOSLARI VA AHAMIYATI

*Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti  
yurisprudensiya yo'nalishi 307-guruh talabasi*

*Ergashev Muhammadrizo*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada fuqarolik sudlarida buyruq tartibida ish yuritish tushunchasi, huquqiy asoslari, ahamiyati va protsessual jihatlari ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.*

***Абстрактный.** В данной статье с научной и практической точки зрения анализируются понятие, правовая основа, значение и процессуальные аспекты гражданского судопроизводства.*

***Abstract.** In this article, the concept, legal basis, importance and procedural aspects of civil court proceedings are analyzed from a scientific and practical point of view.*

***Kalit so'zlar.** Sud buyrug'i, qonunchilik, fuqarolik protsessi, erkinliklar, taraflar.*

***Ключевые слова.** Судебный порядок, законодательство, гражданский процесс, свободы, партии.*

***Key words.** Court order, legislation, civil procedure, liberties, parties.*

O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 12 dekabrda Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga "Buyruq tartibida ish yuritish" deb nomlangan alohida bob kiritilgan bo'lib, hozirda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar ushbu bobda ko'zda tutilgan qoidalarni samarali tarzda amaliyotga tadbiiq etib kelishmoqda.



Sud buyrug‘i nizosiz talablar bo‘yicha sud muhokamasi o‘tkazmasdan berilgan sud hujjati hisoblanadi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning alohida turi hisoblangan buyruq tartibida ish yuritish – fuqarolarning xuquqlari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilishning soddalashtirilgan va ixchamlashtirilgan shakli hisoblanadi. Shu o‘rinda fuqarolarning xuquqlari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilishning soddalashtirilgan va ixchamlashtirilgan shakli sifatida ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sud buyrug‘i chiqarish yo‘li bilan xal qilish muxim ahamiyatga ega yekanligini alohida etirof etishimiz joiz xisoblanadi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan ushbu huquqiy institutining ahamiyati shundan iboratki, ilgari undiruvchining qarzdordan pul mablag‘larini undirish yoki ko‘char mulkni nizosiz tarzda qarzdordan talab qilib olish to‘g‘risidagi arizalari bo‘yicha ish taraflar sud majlisiga chaqirilgan holda ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, sud buyrug‘i instituti joriy etilgach, mazkur toifadagi arizalar bo‘yicha sudya ishni sud majlisida ko‘rmasdan va taraflarni sud muhokamasiga chaqirmasdan, sud buyrug‘i chiqarish vakolatiga ega bo‘ldi.

2018 yil 1 aprelga qadar amalda bo‘lgan Fuqarolik protsessual kodeksida 5 talab yuzasidan sud buyrug‘i chiqarilgan bo‘lsa, 2019 yil 22 oktyabrda kiritilgan o‘zgartirishlarga asosan jami 9 talab yuzasidan sud buyrug‘i chiqarilishi belgilangan. Yangi tahrirda qabul qilingan FPKda so‘ngi yillarda asosan da’vo tartibida ko‘rilgan 3 ta nizo turi yuzasidan ishlarni fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiligini oldini olgan holda, aslida ushbu ishlar nizosiz bo‘lganligi sababli, sud buyrug‘i chiqarish orqali ya‘ni taraflar ishtirokisiz ko‘rib chiqilib sud xujjati chiqarilishi belgilandi. Bu esa fuqarolarga arizalarini tezkor va sifatli ko‘rib chiqilish imkoniyatini yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 171-moddasiga asosan quyidagi hollarda sud buyrug‘i chiqariladi:

- 1) talab notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan bo‘lsa;
- 2) talab yozma bitimga asoslangan va qarzdor tomonidan tan olingan bo‘lsa;



3) kommunal xizmatlar yoki aloqa xizmatlari to'lovi bo'yicha qarzdorlikni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;

4) voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to'g'risidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog'liq bo'lmagan talab arz qilingan bo'lsa;

5) hisoblangan, lekin xodimga to'lanmagan ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni undirish haqida talab arz qilingan bo'lsa;

6) fuqarolardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;

7) ijara shartnomasida belgilangan ijara to'lovlari muddatida to'lanmaganligi sababli ushbu to'lovlarni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;

8) ko'p kvartirali uyning joylari mulkdorlaridan majburiy badallar va to'lovlarni undirish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa;

9) yozma bitim mavjud bo'lgan taqdirda, undiruvni qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti bo'lgan ko'char mol-mulkka qaratish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa.

U kodeksning 173-moddasiga ko'ra, sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini; huquqiy munosabatni sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, agar bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa; talablarga asos bo'lgan holatlarni; arz qilingan talabni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizadan qonunchilikda da'vo ishini yuritish uchun belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta harajatlari undiriladi.

Buyruq tartibida ish yuritishning asosiy xususiyatlari



**Tezkorlik:** Ishni ko‘rib chiqish muddati qisqa, odatda, sud 10 kun ichida qaror qabul qiladi.

**Oddiy protsedura:** Buyruq chiqarish uchun sudda majlis o‘tkazilishi talab etilmaydi.

**Javobgarning ishtirokisiz:** Ishda javobgar tomonga sudning bildirishnoma yuborilishi kerak, lekin u ishtirok etmasligi mumkin.

Buyruq tartibida ish yuritish fuqarolik sudlarida nizolarni tez va samarali hal qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu tartib sudlar va taraflar uchun vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi. Shu bilan birga, fuqarolar ham o‘z huquqlarini tezkor va oddiy usulda himoya qilishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. 01.04.2018:  
<https://lex.uz/docs/-3517337#-3521773>

2. Buyruq tartibida ish yuritish. O‘quv qo‘llanma: X.Yodgorov, U.Almamedov, S.Xolboev, A.Salaev. Toshkent-2016

3. [WWW.Lex.uz](http://WWW.Lex.uz)

4. [www.Sud.uz](http://www.Sud.uz)